

**“KELAJAK MUHANDISLARI” STARTAP AKSELERATSIYA DASTURINI TASHKIL  
ETISH, SARALASH VA O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA  
NIZOM**

**1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

**1.1.** Ushbu Nizom “Kelajak muhandislari” startap akseleratsiya dasturini (keyingi o‘rinlarda – Dastur) tashkil etish, ishtirokchilarni saralab olish, o‘tkazish, loyihalarni moliyalashtirish va ishtirokchilarni baholash tartibini belgilaydi.

**1.2.** Startap akseleratsiya dasturi - saralanib olingan ishtirokchilarning loyiha va ixtirolarini texnik, iqtisodiy hamda ilmiy jihatdan yanada takomillashtirish, MVP ko‘rinishini yaratish hamda amaliyotga joriy etish natijadorligini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan qisqa muddatli (2 oy yoki 40 ish kuni) ta‘lim dasturidir.

**1.3.** Dasturning maqsadi — muhandislik, robototexnika va transport texnologiyalari yo‘nalishidagi yosh iqtidorlarni aniqlash, ularning startap loyihalarini Hardware ko‘rinishiga keltirishga ko‘maklashish hamda global tajribani o‘zlashtirishlariga sharoit yaratishdir.

**1.4.** Dasturni tashkil etish va o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) huzuridagi Yoshlarning innovatsion tashbuslarini qo‘llab-quvvatlash ofisi (keyingi o‘rinlarda – Ofis) zimmasiga yuklatiladi.

**1.5.** Dasturning asosiy tamoyili – “Real muammo, real bozor va real mahsulot”. Dastur ishtirokchilarning bevosita o‘z loyihalari ustida amaliy ishlashiga asoslanadi.

**1.6.** Dastur ishtirokchilarning bevosita o‘z loyihalari ustida amaliy ishlashiga asoslanadi.

**1.7.** Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**loyiha** – g‘oya bosqichidan keyingi daraja bo‘lib, unda g‘oya amalga oshirish uchun aniq rejalashtirilgan, hujjatlashtirilgan shaklda ifodalanadi. Loyihada aniq biznes-reja, maqsadlar, resurslar, vaqt jadvali, bosqichlar va ehtiyojlar belgilab qo‘yiladi. Loyihalar g‘oya asosida quriladi, lekin ular aniq rejalashtirilgan va amalga oshirish uchun aniq yondashuvlarni o‘z ichiga oladi;

**ixtiro** – amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mahsulot, qurilma yoki texnologiyani anglatadi. Ixtirolar odatda maxsus testlardan o‘tgan va patentlangan ob‘ektlar hisoblanadi. Shuningdek, ixtirolar O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilgan asosiy shartlar va talablarga muvofiq bo‘lishi lozim;

**ishlanma** - biror-bir sohada yangi mahsulot, texnologiya yoki uslubni yaratish, mavjudini takomillashtirish yoki amaliyotga tatbiq etish jarayoni va uning yakuniy natijasidir.

**akseleratsiya** –loyiha va ishlanmalarni texnik, iqtisodiy, ilmiy jihatdan yanada takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish natijadorligini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan qisqa muddatli (1–2 oy) ta‘lim dasturi;

**loyiha boshqaruvchisi (menejer)** - akseleratsiya jarayonini to‘liq muvofiqlashtiruvchi shaxs;

**mentor** - dasturning asosiy texnik va biznes yo‘nalishlari bo‘yicha jalb etiladigan yuqori malakali mutaxassislar;

**treker** - har bir jamoa bilan loyiha rivojini nazorat qiluvchi, kunlik va haftalik jarayonlarni baholab boruvchi mas’ullar;

**ishtirokchi** – muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zining loyihasi, ishlanmasi va ixtiroi bilan tanlovda ishtirok etish uchun ariza topshirgan, 18 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan oshmagan muhandislar;

**texnik ekspertiza bosqichi** – dasturga taqdim etilgan ariza hujjatlarini ushbu Nizom hamda dastur talablariga muvofiqligi bo‘yicha tekshirish jarayoni;

**saralash bosqichi** – texnik ekspertiza bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan arizalarni mazmuniy, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi, aynan keltirilgan sohadagi muammoga innovatsion yechim berilganligini aniqlash hamda dasturda o‘qish uchun qabul qilish bosqichi.

**ishchi guruh** – dasturga kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiquvchi, saralash va baholovchi hamda navbatdagi bosqichga o‘tkazuvchi tegishli tashkilotlar, tarmoq korxonalari hamda soha mutaxassislari vakillaridan tuziladigan kollegial organ.

## **2-BOB. AKSELERATSIYA DASTURIGA QABUL QILISH VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI**

**2.1.** Dasturga arizalarni qabul qilish Ofisning rasmiy saytlari orqali e‘lon qilinadi.

**2.2.** Dasturga o‘qish, ish va lavozimidan qat‘iy nazar 18 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ishtirok eta oladi.

**2.3.** Dasturda bitta loyiha bo‘yicha 1 nafardan 5 nafargacha jamoa shaklda ishtirok etish mumkin. Bunda asosiy mas‘uliyat va loyiha hujjatlari jamoa sardoriga yuklatiladi.

**2.4.** Dasturga kelib tushgan arizalar ketma-ket ravishda 2 bosqichdan o‘tkaziladi. Bunda har bir bosqich natijalariga ko‘ra belgilangan talablarga javob bergan arizalargina keyingi bosqichga o‘tkaziladi.

Dastur quyidagi bosqichlarni o‘z ishiga oladi:

- texnik ekspertiza bosqichi;

- saralash bosqichi;

**2.5.** Akseleratsiya dasturiga faqat Hardware loyihalar saralab olinadi.

**2.6.** Dasturga arizalar faqatgina belgilangan rasmiy sayt orqali qabul qilinadi hamda ularni saralash Nizomda keltirilgan tartib asosida Ishchi guruh tomonidan online amalga oshiriladi.

**2.7.** Ishtirokchilar natijalari Ishchi guruh tomonidan tasdiqlangan shaklda rasmiy sayt orqali ma‘lum qilinadi.

**2.8.** Saralash bosqichiga kelib tushgan va aynan biror sohadagi muammoga yechim bo‘ladigan hamda shu sohada innovatsion yondashuv yaratilishiga olib keladigan loyiha, ishlanma va ixtirolarga yuqori e‘tibor qaratiladi.

**2.9.** Saralash boshqichidan 40 nafar ishtirokchi (loyiha, ishlanma, ixtiro) saralanib olinadi va akseleratsiya dasturiga yo‘naltiriladi.

**2.10.** Akseleratsiya dasturiga yo‘naltirilgan ishtirokchilarga dars mashg‘ulotlari 20 nafardan tashkil topgan 2 ta o‘quv guruhlarda tashkil etiladi.

**2.11.** Dastur grafigi hamda dastur mashg‘ulotlari jarayonlari rejasi Ofis tomonidan tasdiqlanadi.

**2.12.** Dastur grafigiga zarur hollarda Ofis direktoriga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

**2.13.** Akseleratsiya dasturi ishtirokchilari ro'yxati Ishchi guruh bayoni bilan tasdiqlanadi va rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi. Ishtirokchilar dastur boshlanishidan kamida 5 ish kuni oldin yozma xabardor etiladi.

### **3-BOB. AKSELERATSIYA DASTURINING MAZMUNI VA UNI TASHKIL ETISH TARTIBI**

**3.1.** Akseleratsiya dasturi Vazirlik tomonidan tegishli idoralar, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, texnoparklar hamda xususiy sektor vakillari jalb etilgan holda qisqa muddatli ta'lim dasturi shaklida amalga oshiriladi.

**3.2.** Akseleratsiya dasturining o'quv rejasiga quyidagi modullar kiritiladi:

– muhandislik yechimlarini takomillashtirish, prototiplash va testdan o'tkazish, amaliyotga joriy etish ko'nikmalari;

– loyihani biznes-rejalashtirish, moliyaviy modeli va tijoratlashtirish strategiyasini ishlab chiqish;

– intellektual mulkni himoya qilish, patentlash va litsenziyalash asoslari;

– taqdimot tayyorlash, nutq mahoratlarini rivojlantirish va investorlar oldida himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

**3.3.** Akseleratsiya dasturi mentorlik sessiyalari, pitchinglar hamda Demo day tadbirlarini o'z ichiga oladi. Har bir ishtirokchiga tegishli soha bo'yicha tajribali mentor biriktiriladi. Mentorlik individual va guruhli shaklda olib boriladi.

**3.4.** Dasturning so'nggi kunlarida stendlar, ko'rgazma joylari va tayyor MVP mahsulotlarining xavfsizligi loyiha boshqaruvchisi hamda mentorlar tomonidan yakuniy texnik nazoratdan (Set-up) o'tkaziladi va jamoalar Demo Day sahnasiga chiqariladi.

**3.5.** Dastur davomida har haftaning oxirida trekerlar boshchiligida "Haftalik sprint" yakunlari o'tkaziladi: xatolar topiladi, prototip sifati baholanadi va keyingi haftaga reja tuziladi.

**3.6.** Dastur davomida ishtirokchilarning norasmiy muhitda fikr almashishlari va jamoaviy ruhni oshirish uchun maxsus "Pizza day" (Jamoaviy tushlik va loyihalar muhokamasi) kunlari tashkil etiladi.

**3.7.** Akseleratsiya dasturini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan mas'ul xodimlar Vazirlik tomonidan belgilanadi.

### **4-BOB. ISHTIROKCHILARNING MAJBURIYATLARI**

**4.1.** Akseleratsiya dasturi ishtirokchilari quyidagi majburiyatlarni bajarishlari shart:

– dastur doirasida belgilangan barcha o'quv mashg'ulotlari, trening va seminarlarda ishtirok etish;

– mentorlik sessiyalarida belgilangan muddatlarda va talab darajasida qatnashish;

– akseleratsiya dasturi yakuniga qadar belgilangan yakuniy hujjatlarni to'liq va o'z vaqtida taqdim etish;

– boshqa ishtirokchilarning intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish;

– dastur intizomiga rioya etish va korporativ etika qoidalariga amal qilish.

**4.2.** Dastur yakuniga qadar ishtirokchilar tomonidan quyidagi hujjatlar ishlab chiqilishi shart:

- loyiha va ishlanmaning takomillashtirilgan texnik tavsifi;
- ishchi prototip (yoki prototipning takomillashtirilgan varianti);
- biznes-reja va amalga oshirish rejasi;
- Ishchi guruh oldida himoya uchun taqdimot.

**4.3.** Akseleratsiya dasturida belgilangan tartib-qoidalarga rioya etmagan, asossiz sabablarga ko‘ra ishtirok etmagan yoki yakuniy hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etmagan ishtirokchilar Ishchi guruhning tegishli qarorlari bilan dasturdan chetlatiladi.

## **5-BOB. AKSELERATSIYA DASTURI MEZONLARI, SARALASH VA BAHOLASH TARTIBI**

**5.1.** Dasturda ishtirokchilar 3 bosqichda baholanadi. Ular:

- texnik ekspertiza bosqichi –kelib tushgan arizalar ushbu Nizomda keltirilgan hamda dastur talablariga muvofiqligi bo‘yicha tekshirish jarayoni. Bunda tegishli sayt orqali kelib tushgan arizalar haqiqiyliги, Nizom va dastur talablariga javob berishligi ko‘rib chiqiladi hamda “Saralash bosqichi”ga yo‘naltiriladi;

- saralash bosqichi - texnik ekspertiza bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan arizalarni mazmuniy, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi, aynan keltirilgan sohadagi muammoga innovatsion yechim berilganligini aniqlash hamda dasturda o‘qish uchun qabul qilish bosqichi.

Saralash bosqichidan 40 nafar ishtirokchi quyida keltirilgan Baholash mezonlari orqali saralanib olinadi hamda Dasturga qabul qilinadi.

Dasturda 2 oy davom etadi hamda dastur yakunlariga ko‘ra “Demo day” o‘tkaziladi. “Demo day”ga faqatgina belgilangan darslarni mukammal o‘zlashtirgan, barcha talablarga javob bergan hamda tayyorlangan MVP loyihasini ishlab chiqarish jarayoniga tayyor holatga keltirgan ishtirokchilar yo‘naltiriladi.

- “Demo day” – Dasturga muntazam qatnashgan, barcha darslarni mukammal o‘zlashtirgan, belgilangan va talab qilingan tayyorgarlik jarayonlariga to‘liq tayyor bo‘lgan jamoalar dastur davomida tayyorlagan tayyor Hardware prototiplar va MVPlarini namoyish etadilar va yakuniy taqdimotni amalga oshiradilar.

“Demo day”da ishtirok etgan loyihalar Ishchi guruh tomonidan quyida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi hamda eng yaxshi 3 ta loyiha saralanib olinadi.

“Demo day”da baholash mezonlari:

- akseleratsiya dasturi davomida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi;
- tayyorlangan prototip va MVPning ishlash darajasi;
- taqdimot tayyorlash uslubi;
- loyiha va muammoni tasdiqlash, mijozlar bilan suhbat (CustDev) va tahlil, birinchi 10 ta mijozni topish, raqobatchilar tahlili va savdo strategiyasi;

- mahsulot tannarxi va xarajatlar ro'yxatini shakllantirish, xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot tavsifnomasi va texnik pasport tayyorlash, qadoqlash va brending, tayyor sotuv holatiga olib kelish;

- patentlash asoslari, loyihani himoya qilish, grantlar topish va ariza yozish, mahsulotni UzDSt sertifikatlashtirish talablari;

- Foydali model, patent hamda DGU hujjatlarini rasmiylashtirilganligi;

- loyihani amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan va zarur kuchli jamoa shakllantirilganligi;

- loyihaning bozor qiymati va o'sish jarayonlari;

- aynan biror bir sohadagi muayyan muammoga innovatsion yechim ekanligi;

- jamoa a'zolarining til bilish darajasi va nutq madaniyati;

“Demo day” yakuniga ko'ra saralanib olingan va g'olib bo'lgan eng yaxshi 3 ta loyiha a'zolari (jamoalar yetakchilari) dastur hisobidan texnologik jihatdan rivojlangan xorijiy davlatlarga (masalan, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya yoki xalqaro “Startup hub”lari joylashgan davlatlarga) tajriba almashish va o'z loyihalarini xalqaro investorlarga ko'rsatish maqsadida stajirovkaga yuboriladi.

**5.2.** Dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan barcha loyihalar Ofis tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarga yo'naltiriladi.

**5.3.** Saralash bosqichida Ishchi guruh tomonidan akseleratsiya dasturi ishtirokchilari 100 ballik tizim asosida quyidagi mezonlarga ko'ra baholanadi:

#### **Dasturning “Saralash bosqichi” Baholash mezonlari**

<b>№</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
<b>1.</b>	<b>Muhandislik yechimi va Hardware salohiyati:</b> Loyihaning fizik model (apparat) ko'rinishiga kelish imkoniyati va muhandislik murakkabligi	<b>30 ball</b>
<b>2.</b>	<b>Innovatsionligi va dolzarbligi:</b> Muammoning mavjudligi va taklif etilayotgan yechimning yangiligi	<b>20 ball</b>
<b>3.</b>	<b>Tijoratlashtirish va bozor salohiyati:</b> Loyihaning kelajakda daromad keltira olishi va bozordagi o'rni.	<b>20 ball</b>
<b>4.</b>	<b>Jamoa salohiyati:</b> Jamoaning texnik va tashkiliy imkoniyatlari, motivatsiyasi.	<b>10 ball</b>
<b>5.</b>	<b>Prototip mavjudligi:</b> Loyihaning dastlabki ko'rinishi (prototip) mavjudligi va uni takomillashtira olish qobiliyati	<b>20 ball</b>
<b>Jami:</b>		<b>100 ball</b>

**5.3.** Ishchi guruh a'zolarining baholari yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

**5.4.** Ishtirokchilarning yakuniy ballari Ishchi guruh a'zolari ballarining o'rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

**5.5.** Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo'lgan hollarda Ishchi guruh tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

**5.6.** Baholash jarayonida hakamlar quyidagi yo'riqnomaga asosan har bir mezon bo'yicha ball qo'yadilar. Har bir yo'nalish uchun baholash tartibi va e'tibor beriladigan asosiy jihatlar alohida belgilangan;

## **6-BOB. AKSELERATSIYA BOSQICHINING MOLIVAVIY TA'MINOTI**

**6.1.** Dasturni tashkil etish va o'tkazish xarajatlari Tanlov uchun ajratilgan mablag'lar va jalb etilgan homiylik mablag'lari hisobidan qoplanadi.

**6.2.** Dasturga qabul qilingan va ta'lim oladigan ishtirokchilar tegishli miqdorda kompyuter, ish jihozlari hamda zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanadi.

**6.3.** Dasturda faollik ko'rsatgan spiker va mentor (jalb etilgan mutaxassislar) uchun mehnat haqi Vazirlik bilan tuzilgan shartnoma asosida to'lanadi.

**6.4.** Yakuniy bosqich ("Demo day")da ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan ishtirokchilar har bir loyihaning bittadan protatipini shakllantirish va uni amaliyotda qo'llash uchun loyihalarni moliyalashtirilidigan tanlovlarga yo'naltiriladi.

## **7-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

**7.1.** Ushbu Nizomda tartibga solinmagan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli hujjatlari asosida keltirilgan umumiy qoidalariga amal qilinadi.

**7.2.** Akseleratsiya dasturiga oid kelishmovchiliklar va nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**7.3.** Ushbu Nizomga zaruriyat tug'ilgan hollarda Yoshlarni innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ofisi direktori tomonidan belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

**7.4.** Dastur davomida yaratilgan intellektual mulk huquqi mualliflarning (jamoalarning) o'zida saqlanib qoladi.

**7.5.** Dastur davomida Nizom talablarini buzgan, odob-axloq qoidalariga rioya etmagan, hamda amaldagi vazifalarni bajarmagan yoxud hisobotlarni vaqtida taqdim etmagan jamoalar Dasturdan chetlashtiriladi.